

Ona yurti - oltin beshiging

TONG Yulduzi

№5 (66390)
2003 yil
3 fevral
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqqan boshlagan.



Safar BARNOYEV

OG'ZINGIZNI SHIRIN QILING

Buxoroda shunday odat,
Odatmisan, xo'b alomat.
Uyga agar kelsa mehmon;
Quchoq ochib kutar mezbon.

So'rab bo'lgach holu ahvol,
Likopchada shoshib darhol,
Olib kelar shirinlikdan,
(Hayron bo'lmang bu qiliqdan).

Oling, oling deydi mezbon,
Og'zingizni shirin qiling.
O'zingizni uyday biling,
Yoziladi so'ng dasturxon.

Ushaladi patiru non,
Ketganida suhbat qizib.
Keltirishar sho'rva suzib,
Dam o'tmayin osh bo'ladi.

Osh yeganlar yosh bo'ladi,
Kulib qo'yar yana mezbon.
O'rgulayin sizdan mehmon,
Kelib bizni shod qildingiz.

Buxoroda shunday odat,
Odatmisan xo'b alomat.
Shirinlikdan boshlansa ish,
Qochib ketar g'iybat, nolish.


Siz ham mehmon bo'lib keling,
Og'zingizni shirin qiling.

STADIONLARIMIZ BO'SHLIGIDAN UYALAMAN

Salom tengdoshlarim! Yoki uka-singillarim!
Sizlarning barchangiz futbol millionlar
o'yini ekanligini bilasiz. Futbolning vatani
Angliya ekanligini-ku, kechasi uyqudan uyg'otib
so'rashsa ham aytib bera olasiz, albatta. Har
holda mening birinchi sinfda o'qiydigan jiyanim
buni juda yaxshi biladi. Futbolga qiziqmaydigan
odam kam bo'lsa kerak, deb o'ylayman.
Ayniqsa, o'g'il bolalar. Futbol- desa, o'zlarini
tomdan tashlashadi. Ko'pchilik bolalarni,
shuningdek, kattalarniyam nega bizning
futbolimiz Angliya, Italiya yoki Ispaniyalikidek
rivojlangan, kuchli emas, degan savol qiynashi
tabiiy. Buning sabablari ko'p, albatta. Shulardan
biri aynan o'zimiz bo'lamiz, do'stlarim. O'sha
Angliya yoki Italiyadagi futbol uchrashuvlariga
qancha muxlis kelishini bir kuzating-a! Oddiy
klublar o'rtasidagi uchrashuvlarda ham
stadionlar to'lib ketadi. Siz hoynahoy: "U yoqda
juda kuchli va qiziqarli o'yin bo'ladi, shuning
uchun muxlis ko'p", -dersiz? Lekin bir narsani
bilib qo'ying. Futbolchilar ham muxlislardan

futbolga borishga ruxsat berishmaydi", -
deyishingiz mumkin. Bu ajablanarli emas.
Siz judayam kichkinasiz. Lekin har biringiz
istagingizni amalga oshirishga astoydil
harakat qilsangiz, unga albatta erishasiz.
Bunga misol keltirishim mumkin. Men ham
birinchi marta futbolga borish uchun zo'rg'a
ruxsat olganman. Buning uchun dod solib
yig'lashga ham to'g'ri kelgan. Oxir oqibat
baribir menga ijozat berishdi. (To'g'ri,
oldimda albatta bironta odam bilan) Siz ham
ota-onangizga: "Bir o'zimni qo'yib
yubormasangiz, birga boring yo akam bilan
boray", -deya olasiz-ku! Bu bilan, aziz
do'stlarim, siz o'yingohdagi ikki o'rinni band
qilgan bo'lasiz. Agar bunga barchangiz
harakat qilsangiz, o'yingoh to'ldi, degani-
da. Agar pul muammo bo'lsa, bundan
xavotirlanmang. O'quvchilarni o'quvchilik
hujjati bilan, kichkintoylarni esa shundoq

ham kirgizishadi. (Men
kirganda shunday edi.)
Kattalar esa bu serzavq
o'yin uchun oldindan
pul topishga harakat
qilsalar natija yomon
bo'lmas kerak, deb
o'ylayman. Qaniydi
stadionlarimiz
muxlislarga to'la
bo'lsayu biz sevgan
jamoa faqat g'alaba
qozonsa!!! Buni siz
ham istaysiz, deb
o'ylayman...



«To'p surish - jonu dilim»
mavzusidagi rasmni poytaxtimizdagi
Yunusobod tumani 239-maktabning 5- «A»
sinf o'quvchisi Suhrob MIRZAYEV chizibdi.

Orzu

A'ZAMOVA,

Respublika

rassomlik kollejining

1-bosqich

talabasi.

BILIMLILAR KO'PAYSA, DEYMAN

Qadrdon maktabing, mehribon ustozlaring
haqida faqat yaxshi gaplarni aytgning keladi.
Biroq...

Men uch yil avval Samarqand viloyati,
Oqdaryo tumanidagi 11-maktabni
bitirganman. O'sha vaqtlarda maktabdagi
ahvol tuzukroq edi. Ayni paytda esa
maktabimizdagi tajribali o'qituvchilar
kamayib ketayapti. Turli sabablarga ko'ra
ishdan bo'shshaypti.

Hozirgi kunda mening uchta ukam mana shu
maktabda ta'lim- tarbiya oladi. Gohida uyga
borganimda fanlar yuzasidan savol- javob
qilaman. Ammo ular oddiygina savollarimni ham
javobsiz qoldirishadi. Ba'zan o'ylab qolaman,
balki ularning o'zi o'qishni xohlamas? Yo'q, ular
xohlashadi. Bilimdon bo'lishga intilishadi.

Maktabimizning bitiruvchilari orasida kamdan-
kam o'quvchilar oliy o'quv yurtiga o'qishga
kirishadi.

Istardimki, qadrdon maktabimdan o'tkir
bilimli, zehnlil o'quvchilar yetishib chiqsa.
Oliy o'quv yurtiga o'qishga kirib, kelgusida
Vatanimizga halol xizmat qilsa. Mana shu
maktab o'qituvchilaridan saboq olganman,
deb maqtanib yursa.

Bekzod RO'ZIYEV,

O'zbekiston Davlat Jaxon Tillari

Universitetining olmon filologiyasi

fakultetining

2- kurs talabasi.

Prezident asarlarini o'rganish

MILLIY ISTIQLOL G'OVASI

ASOSIY TUSHUNCHA
VA TAMOIYILLAR

(Davomi.

Boshi o'tgan sonlarda).

Azal-azaldan diyorimizda islom,
nasroniylik, iudaizm kabi dinlar
yonma-yon yashab kelgan. Asr-
lar davomida yirik shaharlarimiz-
da masjid, cherkov va sina-
gogalarning mavjud bo'lishi, turli
millat va dinga mansub qavm-
larning o'z diniy amallarini erkin
ado etib kelayotgani buning
tasdiqidir. Tariximizning eng
murakkab, og'ir davrlarida ham
ular o'rtasida diniy asosda mo-
jarolar bo'lmagani xalqimizning
dinlararo bag'rikenglik borasida
katta tajriba to'plaganidan dalolat
beradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda
o'ndan ziyod konfessiyaga man-
sub diniy tashkilotlar faoliyat
ko'rsatmoqda. Ularning o'z fa-
oliyatini amalga oshirishi va
mamlakat hayotida faol ishtirok
etishi uchun hamma shart-
sharoitlar yaratilgan. Bu borada-
gi huquqiy asoslar O'zbekiston
Konstitutsiyasida, «Vijdon
erkinligi va diniy tashkilotlar
to'g'risida»gi qonunda o'z ifo-
dasini topgan. Ana shu asoslar
mamlakatimizdagi barcha din va-
killarining hamkor, hamjihat
bo'lib, ulug' va mushtarak
g'oyalari yo'lida harakat qilishi
uchun imkon yaratadi.

V. MILLIY ISTIQLOL
MAFKURASINI XALQIMIZ
QALBI VA ONGIGA
SINGDIRISH

O'zbekistonning mustaqil
taraqqiyot strategiyasini, o'zbek
xalqining buyuk davlat barpo-
etish borasidagi maqsad-mudda-
olarini, milliy istiqlol maf-
kurasining mohiyatini keng jamo-
atchilikka har tomonlama tush-
untirish dolzarb vazifalardan
biridir.

Istiqlol mafkurasini odamlar
qalbi va ongiga singdirishda
jamiyat hayotining barcha so-
halarini qamrab olish, ta'lim-tar-
biya, targ'ibot va tashviqotning
samarali usul va vositalaridan
oqilona foydalanish taqozo eti-
ladi.

Ta'lim va tarbiya. Milliy is-
tiqlol mafkurasini yoshlar qalbi
va ongiga singdirish ta'lim-tar-
biyaning turli shakllari orqali
amalga oshiriladi.

Bunda quyidagi vazifalarni
nazarda tutish lozim:

— ta'lim muassasalarida bola-
lar va talabalarning yoshiga mos
ravishda milliy istiqlol mafkura-
sini singdirishning differensial
pedagogik-psixologik dasturini
yaratish;

(Davomi bor).

Bir kuni sinfda hech kim ingliz tili darsini tayyorlamay kelgan ekan. Hammamiz kelishib, dars boshlanishi bilan shkafni ichiga kirib, berkinib oldik. Ustozimiz sinfga kirib, bizni kutib o'tirdilar. Shkafda tiqilib o'tirardik, havo yetishmasdi, bundan ko'ra darsda o'tirganimiz yaxshi edi. Ustozimiz ham ha deganda chiqib ketavermadilar. Uni ustiga ingliz tili darsi ketma-ket 2 soat qo'yilgan. Dugonamiz Xolida

SHKAFDAGI BOLALAR...

shamollagan edi. Aksirib yubormasin deb, uning og'zini yopib o'tirdik. Baribir bo'lmadi, Xolida aksirib yubordi. Shunda shkaf eshigi ochilib ketsa bo'ladimi... O'qituvchimizning hayron bo'lib qolganlarini ko'rib biz kulib yubordik. Ustozimizning jahllari chiqib, bizni urushib berdilar. Hammamizga ikkitadan «2» qo'yib, hatto direktor nomiga raport yozib berdilar. Ham ikki baho olganimiz, ham direktordan dakki eshitganimiz qoldi. Maslahatim, uyga vazifani qilmagan bo'lsangiz ham, har doim darsga kiring. Bo'lmasa, qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarib qo'yishingiz mumkin.

Shahnoza PIRMATOVA,
Nafis san'at litseyi o'quvchisi.



VATAN
Vatan! Buyuk sajdagohimsan,
Olam ichra muqaddas noming.
Vatan! Jonim-jahonim sensan,
Muqaddasdir sening tuprog'ing.

Sen buyuklar yurtisan, vatan,
Noming ketgan butun jahonga.
Allomalar, shoir, olimlar,
Chorlar doim sharafu shonga!

Mustaqillik, istiqlol uchun,
Qayg'uradi aziz Yurtboshing.
Zavol ko'rmay gullab-yashnagin,
G'am-anduhni ko'rmasin boshing.

Shoir qizing madhingni kuylab,
She'rlar bitsin senga tunu kun.
Ta'rifingni doston aylasin,
Noming qolsin tarixda butkul!

Marhabo RO'ZIYEVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon shahridagi
21 - maktab.

ISTAK

MAKTABGA QAYTING, USTOZ!

Bizning ustozimiz Muhabbat opa O'roqova o'z Biroq, iltimosimiz javobsiz qoldi. Men ustozimni kasbining ustasi, fidoiy va mehribon edilar. Nima maktabimizga ishga qaytishini, bizga yana qiziqarli bo'lganini bilmaymizu lekin ular ishdan bo'shab va mazmunli dars o'tishlarini juda-juda istayman. ketdilar. Sinfimiz ularga juda o'rganib qolgan ekan, shuning uchun maktab direktoriga Muhabbat opani qayta ishga olishning ilojini qilishlarini iltimos qildik.

Shahobiddin NORQULOV,

Jizzax viloyati, Paxtaobod tumanidagi

8-o'rt maktabning 7- «V» sinf o'quvchisi.

MAHALLALAR OBOD BO'LSA


Men bo'sh vaqtlarimda gullar ekib, gullarni ko'paytirishni juda yaxshi ko'raman. Bizning mahallamizda daraxtlar va gullar juda ham ko'p. Har bir xonadon hovlisining oldida manzarali ko'chatlar ekib, mahallamizni, yurtimizni obod bo'lishiga o'z hissasini qo'shadi. Men o'qiydigan maktabning oldida Mirzo Ulug'bek



Musaeva U.

bobomizning haykali turadi. Maktabimiz o'quvchilari birgalikda shanbaliklar uyushtirib, haykal atrofini supurib-sidirib, chiroyli gullar ekamiz. Bobomizni ruhini shod etamiz. Prezident bobomiz bu yilni «Obod mahalla» yili deb e'lon qildilar. Shunday ekan, mahallalarimizning yanada obod bo'lishi uchun, yurtimizning go'zal va farovon bo'lishi uchun biz bolajonlar o'z hissamizni qo'shishga harakat qilamiz.

Umida MUSAYEVA,
Toshkent shahar,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi
27 - maktabning
5- «G» sinf o'quvchisi.



HINDISTONNI BILASIZMI?

26 yanvarda madaniyat, san'at, haykaltaroshlik

rivojlangan mamlakatlardan Hindiston Mustaqilligining 54 yilligini biz ham nishonladik. O'zbek Milliy drama teatriga ko'plab mehmonlar tashrif buyurdilar. Tantana Hindiston va O'zbekiston Davlat madhiyalari bilan boshlandi. Shundan so'ng, so'z navbati Hamdo'stlik ittifoqi o'rinbosari Bobur Ashuraliga berildi.

Hindistonning O'zbekistondagi elchisi Sharot

Sabarval ularning bayramlarini birga nishonlaganimizdan xursand bo'lib, rahmat aytdilar. Madaniyat Vazirligi o'rinbosari Farruh Zokirov 2002 yilda bo'lib o'tgan «Sharq taronalari» ko'rigida I va II o'rinni egallagan hindistonlik san'atkorlarni muborakbod etdi.

Biz intizorlik bilan kutgan daqiqalar ham yetib keldi. Hind tilidagi kuy va qo'shiqlar birin-ketin ijro etila boshlandi. Buxorodan tashrif buyurgan «Tojmahal» guruhi, raqqosa Nodira Boboyevalarning chiqishlari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Zebina Xusanova

esa o'z kuylari bilan barchaga ma'qul bo'ldi. Shundan so'ng, Amerika, Singapur, Yaponiya, Malayziyada tanilgan Manjua Xonim raqs ijro etdilar. Bizlar ham o'z milliy kuy-qo'shiqlarimizni ularga ijro etib berdik.

Alisher Yo'ldoshev boshchiligidagi doirachilar guruhi, «Tojmahal» guruhining «O'zbekiston» qo'shiqlariga kichkintoylarimiz qoyilmaqom qilib raqsga tushdilar. Bayram nihoyasida Savarva Xonim

barcha xonandalarni tabriklab, o'zbek yoshlari hulqi va o'zlarini tutishlari bilan mehmonlarni lol qoldirganini tan oldi.

Nazokat BOBOQULOVA,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi
142 - maktabning 11- «B» sinf
o'quvchisi.



सत्यमेव जयते

O'talar o'giti

Mahmud To'ra QO'RG'ONIY.

Adolatli bo'lay desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Sadoqatli bo'lay desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan.
Saodatli bo'lay desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Hidoyatli bo'lay desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan.
Mahoratli bo'lay desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Shijoatli bo'lay desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan.

Odamlar bor, odam ermas, hayvon undan yaxshi derlar,
Odamlar bor, el g'amin yeb, kuylaguvchi baxshi derlar.
Agar yurt bino bo'lsa, yaxshi uning naqshi derlar,
Gar binoga zarar yetsa, bu yomonlar ishi derlar.
Agar olim bo'lay desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Yaxshi ta'lim olay desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan.

Avlodingni so'rasalar, Amir Temur, turk boshi, de,
«Rahnamoying...?», deb so'rsalar, ota-onam, qondoshim, de.
Elu yurtim, qarindoshim, mehnatsevar, halol-pok de,
«Sen kimsan?», deb so'rsalar, chin o'zbekman, ko'nglim oq de.
El-yurt g'amin yemoq bo'lsang, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Mehmonni xushlamoq bo'lsang, o'qi, uqib, hunar o'rgan.

Bobong sherdir, sen ham shersan, yaratganga shukr aylagin,
Mustaqilsan, mustahkam bo'l, belni mahkam boylagin.
Zamonang mard erur, mard bo'l, yaxshi o'ylab so'ng kuylagin,
Boshingga gar qilich kelsa, yolg'on dema, rost so'ylagin.
Adashmasdan yuray desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Hayot gashtin suray desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan.

Yana do'stlar aro ig'vo rishtasin tarqatib yurma,
Adovat bog'iga borma, birovga qora rang surtma.
Munofiqlar birla yurma, nokaslardan osh-non so'rma,
Boshingga gar tushsa tashvish, birovdandur, deya ko'rma.
Yaxshilarga yondashmoqchun, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Dushman bilan kurashmoqchun, o'qi, uqib, hunar o'rgan.

Hayot davrida eng avval, ota-onangni hurmat qil,
So'ngra o'tgan avlodlaring, ruhlarin shod etmoqni bil.
Bog' yarat, gullat Vatanni, o'chmaydi noming necha yil,
Bu diyor jannatmakondir, do'stlar bilan o'yna-da, kul!
Yurti obod qilay desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Tilni novvot qilay desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan.

Avlodlarim kim ekan deb, tarixingni bilib olsang,
O'zligingni anglab, so'ngra, farzandlarga uqdirolsang.
Shundagina sen haqiqiy otadursan, chin insonsan,
Yo'qsa, hatto farzanding ham, tan olmasdan, derlar: «Kimsan?»
Inson bo'lib yashamoqchun, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Halol yashab, osh yemoqchun, o'qi, uqib, hunar o'rgan.

Vatan bir bog', atrofi tog', bo'lay desang usta bog'bon,
Gullatayin, yashnatayin, xalqim o'ynab kulsin debon,
Elim-yurtim, deb ishlasang, mard o'g'lonim, deyman hamon,
Lek ishlamay, kishnab yursang, farzandim yo'q, deyman shu on.
El duosin olay desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Chin farzandim bo'lay desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan.

«Ilm istasang, bor, - deyilgan, - Xitoygacha!», ul hadisda,
O'qib o'rgan, donolarning kitoblarin asta-asta...
Ishbilarmon, tadbirkordek, har sohada bo'lsang usta,
Do'stlararo izzatdasan, dushmanlaring bo'lar xasta.
Ishning ko'zin bilay desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan,

Ikki bola sirpanish maydonida konkida turishibdi. Uzunlikni o'lchaydigan asbob yordamida qaysi bolaning vazni ikkinchisidan necha marta og'ir ekanligini qanday qilib aniqlash mumkin?

Elda obro' topay desang, jon kuydirib ishla, o'g'lim,
Mehnat tagi rohat, derlar, tushkunlikka tushma o'g'lim.
Mahmud aytgan bu so'zlarni quloqqa ol, ushla o'g'lim,
O'ylab bosgin qadamingni, hech bir ishda shoshma, o'g'lim.
Yeti o'ylab bir kesmoqchun, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
O'ylab, so'ngra, ne demoqchun, o'qi, uqib, hunar o'rgan.


Futbol to'pining diametrini oddiy yog'och chizg'ich yordamida qanday qilib aniqlash mumkin?

Nega qimmatbaho toshlar yaltiraydi?

Uyning zinapoya bo'ylab 16-qavatigacha bo'lgan yo'l 4-qavatigacha bo'lgan yo'ldan necha marta uzun?



Qanday qilib 5 ta olmaning birortasini ham 6 ta bo'lakka bo'lmasdan turib, 6 kishiga teng qilib bo'lib berish mumkin?



Nega yulduzlar kunduzi ko'rinmaydi?

Asalari qanday qilib g'ing'illagan ovoz chiqaradi?

So'zni shirin qilay desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan.
Birov sendan o'rganmasin, yurt boyligin sovurmoqni,
Sirti go'zal, o'zi nobop «dang'illama», uy qurmoqni.
Odamlarni adashtirib, yomon yo'llarga burmoqni,
Xayolingga keltirma hech, elni aldab kun ko'rmoqni!
Ko'p yil yashab yuray, desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Davru davron suray desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan.

Bu nasihat senga o'g'lim, do'stlaring-la o'qib o'rgan,
Balki dushmanlaring o'qib, «Bu ne hol?!», deb kulib yurgay.
Bunday zotlar ochga bermas, to'qni ko'rmas, xudo urgan,
Shu sababdan hasadgo'yni, el yoqtirmay, chetga surgan.
Do'st-dushmani ajratmoqchun, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Jumboqlarni yechmoq uchun, o'qi, uqib, hunar o'rgan.

Ko'p aqlli bo'lsang, bo'lu, ko'pni ko'rganlardan o'rgan,
El bir ummon bo'lsa, bilki, donolar ko'p, ham pahlavon...
Sen shularning biri bo'lsang, mag'rurlanib ketma har yon,
Bosh osmonga yetsa hamki, uzilmasin, oyoq yerdan...
Elga ta'zim qilmoq bo'lsang, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Eldan ta'lim olmoq bo'lsang, o'qi, uqib, hunar o'rgan.

Boyluk qo'lining kiri, derlar, yuvsa, artsa ketarmish,
«Kir» qo'l qayga uzatilsa, bexato tez yetarmish...
Lekin, o'g'lim, qo'l tozami, aqling raso, qilma tashvish,
To'g'rilikcha hal etarsan, bo'lsa agar har qanday ish!
Qo'lim toza bo'lsin desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Dil pokiza bo'lsin desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan.

Kimning tuzin ichgan bo'lsang, tuzlig'iga tupurma hech,
Gar, u seni yomon, desa, «O'zing yomon!», deb yurma hech.
Nochor qo'shning ne so'rasa, bo'lsa, «Yo'q!», deb o'shqirma hech,
Farzandlaring och bo'lsa-yu dang'illama uy qurma hech.
Yetim boshin silaysanmi, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Do'stga omad tilaysanmi, o'qi, uqib, hunar o'rgan.

Yigitga qirq hunar ko'pmas, ilm ol-da, hunarli bo'l,
Jahonga sen emas, ilmu hunarlaring olsin-da yo'l.
Ustozlaring, Ibn Sino, Beruniy hamda Ibrat, bil,
Ibrat olsang o'lmagaysan, noming o'chmaydi necha yil.
Men ham dono bo'lay desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Tilda, dilda qolay, desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan.

Dushman dono bo'lsa sendan, undan o'rgan, uyalma hech,
Gar or qilib o'rganmasang, «Afsus...», dema, bo'ladi kech.
Dono, dono emas, o'g'lim, so'rab o'rgansa u bardam,
Sen amal qil bunga doim, dushman mag'lub bo'lganda ham.
Dushman sirin bilay, desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Elga g'amxo'r bo'lay desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan.

Hayot borki, kurash ham bor, tinchroq hayot jannatdamish,
Sen agar tanho kurashsang, bil kelmagay qo'ldan bir ish.
Shu bois do'st top o'zingga, yaxshi do'st jondan aziz,
Do'stlaring qadriga yetsang, do'stlar ishi undan laziz.
Yaxshi do'stlar topmoq uchun, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Dushman og'zin yopmoq uchun, o'qi, uqib, hunar o'rgan.

O'g'lim, bunday she'r yozmoqni ustoz Mashrabdan o'rgandim,
Sen agar bo'lsang-da, shoir, ul Navoiydan o'rgangin.
Ikki narsang qolur oxir, eldan-elga bilib olgin,
Bir dono so'zing, so'ngra botir bo'lsang, ishing bilgin.
So'zim doston bo'lsin, desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan,
Yurtim bo'ston bo'lsin, desang, o'qi, uqib, hunar o'rgan.



(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

Lanjeven yanglishgan bo'lsa, bu yolg'iz uning xatosi emas, bu ta'limotu e'tiqodlarga ne-ne olimlar aldanmagan, zotan, davrning o'zi shunaqa edi.

Modomiki,

t a r i x n i

o'zgartirib

bo'lmas

e k a n ,

b o ' l s a ,

Bilimim shu yerga yetib keldikim, Bilimsizligimni endi tushundim.

Abu Shukur Balxiy

voqealarni qanday yuz bergan shundayligicha bayon qilaylik.

Lanjevenning sobiq SSSRga nisbatan xayrixohligi, tabiiyki, o'z-o'zidan belgilandi, uning siyosiy qarashlari, ma'naviyati, ahloqi amalda mujassam

topishida yaqqol namoyon bo'ldi. Zotan, 1920 yildayoq transport xodimlari ish tashlagan paytda talabalarni shtreykbrexerlarga aylantirishga qarshi ommaviy tarzda e'tiroz bildirgan odam boshqacha bo'lishi mumkin ham emasdi. Qolaversa, «Dengizchilarimiz Qora dengizda intervensiyani to'xtatish bilan Fransiya sha'nini saqlab qolishdi», deb hisoblagan odam ham shu edi.

Uning quyidagi so'zlariga bir e'tibor bering-a:

-Ma'naviy madaniyat nuqtai nazaridan Yevropa Rossiyasiz Yevropa bo'lmay qolishi shubhasizdir. Ruslar bilan hamkorlik ikki yuz yil avval boshlangandi. Ilm-fanga intilgan bu yosh mamlakatning bitmas-tuganmas imkoniyatlaridan foydalanish yanada yaxshiroq yo'lga qo'yilgani sayin bu hamkorlik borgan sari kattaroq ahamiyat kasb etaveradi.

Olim bu gaplarni amalda isbotladi: Moskvaga keladi,

ABADIYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi

Xarkovda fiziklar bilan uchrashadi, Tbilisida ma'ruza o'qiydi, «Fransiya-SSSR» jamiyatining birinchi raisi ham Lanjeven edi.

Eng yosh paytidan Dreyfusni ayblaganlarni keskin fosh qilgan Joresning nutqini eshitgan kundan boshlab Lanjeven jaholatga qarshi ayovsiz kurashga otlandi. Xalqaro kongressda birinchi marta qatnashgan paytidayoq gazlarning kinetik nazariyasi xususida nemis olimi Lenard bilan bahslashib qoldi. Ular o'shanda

bahs mavzui ham o'zgardi. Lenard harbiyga salom beradigan Gitler portreti esa vaqti kelib Lanjevenning turmadagi kamerasi devorida osig'liq turar edi.

Olim bir kishilik iflos k a m e r a g a tushib qolgani t a s o d i f i y emas, chunki Lanjeven 1933 yili tuzilgan Butunjahon Antifashistlar qo'mitasi raisi, 1935 yili tashkil etilgan Antifashist ziyolilarining sergaklik qo'mitasi

Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.

Sharq naqli

tashkilotchisi, 1939 yili tuzilgan taraqqiyparvar «Tafakkur» jurnalining direktori, gitlerchilar hibsga

"TUSHUNISH BILIMDAN QIMMATROQ"



olgan birinchi fransuz ziyolisi edi. Olimning kuyovi - qizi Elenning eri, shifokor va iste'dodli fizik bo'lib yetishgan Jak Solomon ajoyib inson edi. U ham xotini kabi kommunist bo'lgan va okkupatsiyaning dastlabki kunlaridanoq podpolega ishga o'tgan. Hibsga olinganda u mutlaqo xotirjamlik bilan dedi:

-Mantiqan olib qaraganda otilishimni bilaman. «Mayn kampf»ni o'qiganman, meni nima kutayotganidan xabardorman.


Uni uzoq qiynashdi va keyin otib tashlashdi. 1944 yili 26 sentabr kuni esa 72 yoshli Pol Lanjeven Fransiya Kompartiyasining rahbari Jak Dyuklo huzuriga kelib, uni Kommunistik partiya safiga, fizik Jak Solomon egallagan o'ringa qabul qilishlarini so'radi.

Olimning vafotidan keyin mashhur fizik Frederik Jyulio - Kyuri unga shunday baho berdi:

-Lanjeven zamonamizning eng buyuk insonlaridan biri edi!

(Tamom.)

XOTIRANGIZNI SINAB KO'RING



Zaynutdinova Azizaxon Murodbek qizi. 1992 yilda maymun muchali, arslon burji ostida tug'ilgan. Adabiyotga juda qiziqadi. Ketmaket to'xtamasdan 50 ta (ellikta) she'rni yoddan aytib bera oladi. Hozirda Yunusobod

tumanidagi Yusuf Mo'minov nomli 274 - maktabning 4-sinf o'quvchisi.

-Aziza, necha yoshingizdan she'r yodlay boshlagansiz?

-Rostini aytsam, 1 yoshdan.

-Yo'g'-ye, o'zingiz aniq eslay olasizmi?

-Men eslay olmayman, oyimning aytishlaricha 8 oyligimda tilim chiqib, qo'shnilar qo'lidan tushmas ekanman. 1 yoshga to'lganimda buvam menga ushbu she'rni yod oldirgan ekanlar:

Kecha-chi Hakim,

Mening amakim.

Keltirdi kitob,

Uni o'qiboq...

shu joyigacha to'xtamasdan aytib berarkanman.

-Demak, hali esini tanimagan qizaloq she'r yod olib, hammani lol qoldirgan ekansiz-da!

-Ha, bog'chaga borganimda sal-pal esimni taniganman shekilli, «Qorqiz», «Navro'zoy» bo'lganlarimni juda aniq eslayman. Bog'cha opamlarni, ya'ni Yorqinoy opamni juda yaxshi ko'rardim. Ular menga bayramdan o'n kun oldin Qorqiz, Navro'zoylar aytadigan so'zlarni berib: Bemalol yod olaver, - derdilar. Men bo'lsam uyga keliboq oyimga tezroq menga matnni yodlatishlarini iltimos qilardim. Ertasi kuni bog'cha opam

matnni yodlaganimni ko'rib, aniqrog'i eshitib hayron qolardilar va menga: «Men senga yodlashga qiynalma, o'n kun davomida ulgurarsan, deb matnni oldinroq bergandim. Sen men o'ylagandan ham tez yod olibsanku. Barakalla», deb maqtar edilar.

-Maktabda uyga yodlashga berilgan she'rlarni birinchi bo'lib yodlab olsangiz kerak?

-Ustozim Dilobar opa o'qish darsida she'rlarni ifodali o'qib yodlashni uyga vazifa qilib beradilar. Tanaffusda ikki marta she'rni o'qisam, uyga borib yana ikki-uch bora qaytaraman. Keyingi darsda «besh» baho meniki bo'ladi.

Aziza shunday hayajon bilan so'zlardiki, nazarimda she'rlar uni o'z asiriga aylantirgandek edi. She'r aytmay bir soniya ham tura olmaydigandek tuyulardi menga...

-Yana-chi, uyda bo'sh vaqtlarimda Navoiy g'azallaridan, Cho'lpon she'rlaridan, Bilol Aminov hikmatli so'zlaridan, Erkin Vohidov, Hamid Olimjon, Abdulla Oripov, Safar Barnoyev, Miraziz A'zam, Muhammad Yusuf, Iskandar Rahmon she'rlaridan oyimdan bekitib yodlab olaman.

-Nima uchun «bekitib»?

-Chunki oyimlar ko'p she'r yodlash miyaga zarar, undan ko'ra pishiriqlar pishirgin, deydilar.

-To'g'ri-da, qiz bolaning pazanda bo'lganiga nima yetsin... - deya Azizaga sinovchan nigoh tashlayman. U esa:

-Ha, to'g'ri, men darslarimni tayyorlab bo'lib, ukamga, dadamga, oyimga «Kuzya» pishirig'ini qilib beraman.

-Menga ham «Kuzya» pishirig'ini masallig'ini aytib bering.

Aziza bir zumda pishiriqning tayyorlanishini aytib boshladi. Bundan ko'rinib turardiki, u haqiqatan ham pazandalikka qiziqar ekan.

-Eng quvonchli va qayg'uli kuningizni eslay

olasizmi?

-Men uchun quvonchli kun - maktabda o'qish fanidan sinflararo bo'lib o'tgan olimpiadada 1-o'rinni olganim. Endi tuman bo'yicha o'tkaziladigan olimpiadaga tayyorgarlik ko'ryapman. Olimpiadada daftarga yozilgan 60-70 she'rimdan hakamlar tanlagan she'rlarini yoddan aytib berdim. 1-o'rinni e'lon qilishganda quvonchim cheksiz edi... Aksincha, hayotimdagi qayg'uli kun oyimlarni xafa qilgan kunim. Ularga yolg'on so'zlab, ko'ngillarini og'ritib qo'rganman. Oyim aldaganimni ko'zimdan bilib qolibdilar. Qancha yalinsam ham, uzr so'rasam ham yolg'onimni yuva olmasligimni bilardim. Lekin shunga qaramay oyim meni kechirdilar. Chunki onajonimning tenglari yo'q-da.

-Endi «boshingga qilich kelsa ham, rost gapir» naqliga amal qilarkansiz-da?

-Ha, albatta.

-Keling Azizaxon, hajviy she'rlaringizdan ham yodlab bering...

-Anvar Obidjonning «Kalamushvoy» she'rini aytib bersam maylimi?..

Kalamushvoy, kalamush,

Savoding sal chalamush.

Yozgin desa «temir» deb,

Sen yozibsan «kemir» deb.

-Rahmat. Kelajakda qaysi mutaxassislikni egallamoqchisiz?

-Jurnalist bo'lmoqchiman, sizga o'xshab (kuladi).

-Albatta niyatingizga yeting. Olimpiadada esa sizga faqat omad tilab qolaman.

GULYUZ suhbatlashdi.

2003 yil- Obod mahalla yili

HAMKORLIKDA GAP KO'P,

- deydi poytaxtimizning Shayxontohur
tumanidagi 20- maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi Difuza opa ZOITOVA.

- Yurtboshimiz aytganlaridek, farzandlarimiz dastlabki jamiyat tarbiyasini aynan mahalladan oladi. Vatanni tanish, kindik qoni to'kilgan tuproq, uni inson sifatida shakllantirgan muqaddas mahalladan boshlanadi.

Chindan ham farzandlarimizning har bir harakatlari mahalladoshlarga ayon. Chunki mahallaning ko'zi o'tkir, qulog'i sezgirdir.

Mana, bir necha yildan beri har bir maktabda «Oila - maktab - mahalla» bilan hamkorlikda ish olib boriladi. Bu borada bizning maktab va mahallamizda yaxshi ishlar yo'lga qo'yilgan.

Bizning Turkqo'rg'on mahallasi faollari bolalar tarbiyasiga befarq qaramaydilar. Tarbiyasi og'ir bolalar bilan alohida shug'ullanadilar. Ayniqsa, ota-onalar, o'qituvchilar bilan birgalikda uyushtirilayotgan suhbatlar faqat ijobiy natija berayapti. Bolaning tarbiyasi avvalo

ota- onasiga bog'liq. Shunday ekan, ota- onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishi lozim.

Yaqinda maktabimiz o'qituvchilari mahalladagi yangilikni eshitib juda xursand bo'ldik. Boisi, mahallamizda «Yoshlar bilan ishlash» bo'limi faoliyat ko'rsatayotgan ekan. Ayni kunlarda bo'limning rejalari katta.

Biz o'qituvchilar ham mahalla faollari bilan birgalikda ishlashga doimo tayyormiz. Kelajagimiz davomchilarining bilimdon, zukko va albatta intizomli bo'lishlari uchun barcha qiyinchiliklarni yengishga harakat qilamiz.

Mahallamiz bolalari,
Chirog'imiz, ko'rkimiz.
Mahallamiz bolalari,
Bizning faxrlarimiz.

I.ODILOV yozib oldi.

Bolalikni «beboshligim», «quvnoqligim» deb ulug'laymiz. Ha, bolalik xotiramizda umrbod muhrlanib

so'zlarini yozar ekanmiz, go'yo qalbimizdagi mehnri qog'ozga tushirayotganday bo'lamiz. Bilim olishga

BOLALIGIM

qoladigan davrdir. Ayniqsa, go'daklik davri... Buni o'zimiz eslay olmasak ham, ota-onamiz, buvi-buvajonlarimizdan eshitib, o'zimizning qanday bo'lganimizni bilib olamiz. Ilk kulgan oyligimiz, o'tirishni o'rgangan kunimiz, emaklaganimiz, atak-chechak qilib birinchi qadam tashlagan paytimiz, ilk so'zlarimiz - barchasini kattalardan eshitish qanday ajoyib-a?

Maktabga qadam qo'ygan kunmiz-chi? Qo'limizga qog'oz-qalam olib, «Vatan», «Ona», «Ota», «Non»

mukkasidan tushamiz-da, hayotimizning asosiy poydevorini qurayotganimizdan bexabar bo'lamiz. Qanday soddalik va go'zal davr. Biroq, bu davr misol oqqan suvdek bir zumda o'tadi. O'smirlikka qadam qo'yar ekanmiz, kichkinagina tashvishlar, hayot so'qmoqlari boshlanadi.

Bibimayam XO'JANOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli
tumanidagi 57-maktabning
9-sinf o'quvchisi.



Yulduz tomon chopar

dil so'zim

Ey, samo, bepoyon samo! Senga havasim keladi. Tuyg'ularim sen tomon yeladi. Shunchalar shaffofsanki, senga boqqanimda vujudimda ajib bir hissiyot tug'yon uradi. Sen tomon uchgim keladi. Quhog'ingda ne-ne sir-sinoatlar bor, qanday dunyo yashaydi, ey cheksiz samo!

Qaniydi quyoshning iliq, zarrin nurlariga osilib sen tomon chiqsam. Bag'ringdan joy olgan oymomaning sochlaridan silasam. Miltiragan yulduzlar bilan dildan hasratlashib yuragim yozsam.

Oppoq momiqdayin bulutlar meni o'zi tomon chorlaydi. Qalbim yana his-tuyg'ular zarbidan titraydi. Xayolim uzoq-uzoqlarga - sen tomon oq qush misoli uchib ketadi. «Meni ham, meni ham olib ket» deya nola chekib qoladi yurak. Asta-sekin quyosh ufq ortiga bota boshlaydi. Sen alvon shafaqlar bilan bo'yalasan. Aql-hushni o'g'irlovchi tarovatingga yana joziba qo'shiladi. Birdan qop-qora tun lashkarlari bostirib kelib, yuzingga qora parda to'sadi. Borliq zim-ziyo. Lek sen tun qo'ynida ham o'zgachasan. Yuraklarni larzaga solib hissiyotlarni ko'pirtiruvchi husning hatto qora tun qo'ynida ham qalblarni maftun etadi. Endi

qachon sen tomon parvoz etib, vaslingga erishishimni, mo'jizakor, afsonaviy go'zaligingdan to'yib-to'yib bahra olishimni, beg'ubor yuzlaringdan silashni yuragim orziqib kutishdan o'zga choram yo'q. Men uchun faqatgina xayollarim yeta oladigan uzoq-uzoqlardagi, qo'lim yetmas orzum - maftunkor samo va nihoyat, sen tomon oshiqqan qalbim tuyg'ulari qorong'ulik ichiga singib ketdi. Ammo sen mening shuurimda yashaysan!

Tun. Zim-ziyo tun!
Tuyg'ular zarbidan yurakda og'riq.
Qop-qora sukunat yig'latar qalbni,
Jimjitlik qa'riga cho'kkandek borliq.
Uzoq-uzoqlarga boqaman hissiz,
Nogoh o'zi tomon imlar bir yulduz.
Birdan ko'piradi jilovsiz tuyg'u,
Yulduz tomon chopar hasratli dilso'z.

Sarvinov HUSAINOVA,
Namangan viloyati, Chortoq tumanidagi 25-o'rta
maktabning 11-sinf o'quvchisi.

Alisher Navoiyga ta'zim ila...

Ruboiy

Rost g'araz' ko'zdin erur,
Noqul² qilsang nojins-la³.
Sen dog'i kasofatsen
Latiflikdan yiroqda.
Gar shohid⁴u latif bo'lsang,
Sen-la ahlu diyor⁶ shoddir.
Vard⁷ kabi ochilib yursang,
Nokas⁸u nojinslar motdir.

Ruboiyning ma'nosi:

Yomon niyat ko'zdan bilinadi. Yomon niyatli betayin bilan suhbat qursang, sen odamlarga kasofat keltirasan. Muloyimliging qolmaydi. Agar muloyim va go'zal bo'lsang o'zing ham, o'zgalar ham xursanddir. Atirguldai ochilib, shod bo'lib yursang, betayin va pastkashlar seni xursandligingni ko'rib, kuyib mot bo'ladi...

- 1-G'araz - yomon niyat;
- 2-Noqul - suhbatlashmoq;
- 3-Nojins - betayin;
- 4-Latif - muloyim;
- 5-Shohid - go'zal;
- 6-Ahlu diyor - yurt, xalq;
- 7-Vard - atirgul;
- 8-Nokas - pastkash.



Alisher ISOMIDDINOV,
Respublika Nafis san'at litseyining
9- «A» sinf o'quvchisi.

G'azallar mulkingning sultoni - Alisher Navoiy bobomizning tavallud kunlariga bu yil 562 yil to'ladi. Ushbu qutlug' kunga atab barcha maktablarda g'azalxonlik kechalari bo'lib o'tadi.

Xususan, ana shunday kechalardan biri bizning maktabimizda ham bo'lib o'tdi. Yuqori sinf o'quvchilari tomonidan tayyorlangan sahna ko'rinishlari quyi sinf o'quvchilarida she'riyat mulkingning sultoni haqida bir qancha yangi taassurotlarni qoldirdi. Kecha so'ngida bobomiz qalamiga mansub g'azallar, ruboiylar bilan «baxru bayt» o'tkazildi va o'quvchilar g'azallar yodlash bo'yicha bellashib, o'zlarining bor bilimlarini namoyish qilishga intildilar. Tadbir maroqli va qiziqarli o'tganligi bois ham o'quvchilar o'zlarini Alisher Navoiy davrida

G'AZALLAR MULKINING

yurgandek his **SULTONI** qilishdi. Chunki nafaqat sahna ko'rinishlariga, balki, o'sha davrning kiyinish madaniyati ham e'tiborga olingandi. XIV-XV asrning milliy liboslari sanalmish mahsi-etiklar, zarbof to'nlar, sallalar, tillaqosh, zarchoponlar kechaning ko'rkiga-ko'rk bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Tilimizning qanchalik boy, serjilo va serqirra tomonlari ko'p ekanligini bobomiz o'zlarining asarlarida ifoda etganlar. Oradan besh asrdan ortiq vaqt o'tibdi, hanuzgacha bobomizning g'azallari xalqimiz tomonidan sevib o'qilmoqda. Bu g'azallar xalqimizning ma'rifatli bo'lishiga, yurt uchun o'z jonini ham berishga tayyor bo'lishiga, mehr-muhabbat tuyg'usining vafoli bo'lishiga chorlaydi.

Bu kabi tadbirlarning uyushtirilishi kelajak avlodning ma'naviyatiga, ma'rifatiga ta'sir ko'rsatadi. Shuni hisobga olsak, bu tadbir ijobiy natija beradi, deb hisoblasak bo'ladi.

Zulxumor UMAROVA,
Hamza tumanidagi tarix faniga ixtisoslashgan
216 - maktabning 11-sinf
o'quvchisi.



Maktabdagi muhabbat

SEVGI HAYOTDAN AZIZMI?

Dugonam Shahnoza mendan ikki yosh katta. U anchadan buyon ularga qo'shni yashaydigan Shohrux ismli bir bolani yaxshi ko'radi. «Uni bir kun ko'rmasam, uyqum kelmaydi», derdi doim. Achinarlisi shundaki, Shohrux uni do'stona hurmat qilardi, xolos.

Yaqinda Shohruxlarning oilasi boshqa shaharga ko'chib ketishdi. Shahnoza esa o'zini qo'yarga joy topolmayapti. Kayfiyati juda tushkun. «Men uchun hayot tugadi. Ota-onam uyda yo'qligida tomirlarimni kesib, o'z joniga qasd qilmoqchiman» deyapti. «Katta bo'lib, boshqa birortasini sevib qolarsan. Sevgi-muhabbat haqida o'ylashga hali juda yoshlik qilamiz-ku...» deya undan yosh bo'lsamda, maslahat berishga majbur bo'ldim. Menimcha, sevgi yo'lida o'z joniga qasd qilish, ahmoqlikdan boshqa narsa emas.

Umida, 13 yosh.



BIRINCHI MUHABBAT O'TKINCHIMI?

G. ismli eng yaqin dugonam D. ismli bolani sevib qolgandi. Uning ham dugonamda ko'ngli bor ekanmi, sevgi izhor qildi. Dugonam D.ning sevgisidan o'zini yettinchi falakda uchib yurgandek his qilardi.

Bir kuni nimadir bo'lib ular tortishib qolishibdi. Shunda D. G.ga: «Men dugonangizni sevib qoldim, u bilan tanishtirib qo'ying. Siz bilan esa do'st bo'lib qolmoqchiman», debdi. Dugonam o'zini tutolmay yig'lab yuboribdi...

Shu-shu biz birinchi muhabbatga ishonmay qo'ydik. Siz ham aziz dugonajonlar, yigitlarning yolg'on va dalariga ishonmang. Ularning qo'lida qo'g'irchoq bo'lib qolmang...

Sevara AHROROVA,

Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanidagi
23 - maktabning 9 - sinf o'quvchisi.

SEVIB YASHAYMAN

Hayot so'qmoqlari bo'lsa-da qiyin,
Achchiq alamlarga chidab yashayman.

Suratingga boqib, to'ymas ko'zlarim,
Yolg'izim, men seni sevib yashayman.

Nolalar qalbimda uradilar oh,

Tonglarni men bedor kutib yashayman.

Fursatning ortidan fursatni quvib,

Ayriliq azobin yutib yashayman.

Mayliga, bu kun baxt kulmasa hamki,

Ertaga baxtimni kutib yashayman.

Qalbimni tark etsa sabr va bardosh,

Anhor suvi kabi to'lib yashayman.

Baxtiyor kunlarim sarhisob qilib,

Har kunni g'animat bilib yashayman.

Mo'tabar XASANOVA,

Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi
25 - maktabning 11 - «B» sinf o'quvchisi.

QIZ BOLA SEVIB QOLSA...

Sinfdoshim Muhayyo boshqa sinfdagi Akromni sevib qolib, sevgisini xat orqali aytmoqchi bo'ldi. Yaqin dugonasi Dildora:

- Dugonajon, hech qachon qiz bola yigitga sevgisini oshkor qilmaydi. Aqling bo'lsa, unga xat yozma, deya maslahat berdi.

- Yo'q, nima bo'lsa bo'lar. U men uni sevishimni bilishi kerak, deb turib oldi Muhayyo.

Dildora dugonasini bu yo'ldan qaytarib olmasligiga ko'zi yetib, unga Akrom boshqa qizni sevishini aytib yubordi. (Dildora Akromning qarindoshi edi.) Muhayyo baribir shashtidan qaytmadi va xat yozib o'sha sinfdagi o'qiydigan bir qizdan Akromga berib yubordi. Tasodifiy qarangki, xatini o'sha Akrom sevgan qizdan berib yuboribdi. Qarabsizki, ularning munosabatlari buzildi. Bunga chiday olmagan Akrom hammaning yonida Muhayyoning yuziga tarsaki tortib yubordi. Muhayyo alamidan rosa yig'ladi... U Dildoraning maslahatiga quloq solmaganiga qanchalik achinmasin, endi kech edi.

Durdona AVAZOVA,

Toshkentdagi 85 - maktabning 8 - «A» sinf
o'quvchisi.

BIRINCHI SEVGIM

Ko'kda to'lin oy boqardi ma'yus,
Negadir parishon bo'ldi xayolim.

Qaydandir kelardi bir ovoz, bir sas,
Ha, o'sha sen eding, birinchi sevgim!

Yillar ham o'tdilar, go'yo oqar suv,
Seni hali topmay, zumda yo'qotdim.

Qalbim sog'inch ila qiynalar bu tun,
Ha, o'sha sen eding, birinchi sevgim!

Qayerda bo'lsang ham baxtli bo'l faqat,
Sen mening qalbimsan, yuragim, ruhim.

Endi azoblarga qilolmam toqat,

Armon bo'lgan sevgim, birinchi sevgim...

Feruza AHMEDOVA,

Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi
7 - umumta'lim maktabining 10 - sinf
o'quvchisi.«SEVAMA-A-N»
DEYISHADI-YA...

Mana, oltinga teng o'quvchilik yillarimiz ham ortda qoldi. Tengqurlarimning qay birlari bu damlarni puxta bilim olish, o'qib-o'rganish bilan, boshqalari o'yin-kulgu bilan o'tkazishdi. Buning «mevasi»ni esa endi ko'rishyapti. Vaqtini behuda o'tkazgan o'g'il-qizlar o'qishlarga kirib olgan tengdoshlariga havas bilan boqishyapti. Ular ham vaqtida puxta bilim olganlarida edi. Afsuski endi kech...

Men bu gaplarni bejiz aytayotganim yo'q. Maktabda o'qiyotgan uka va singillarimga saboq bo'lishini, ortga qaytarib bo'lmas o'quvchilik yillarining qadriga yetishlarini istardim. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida ham «o'ldim-kuydim» deb yuradiganlari borligidan xabarim bor. Mushtdekkina bo'lib turib, «sevama-a-n» deyishadi-ya. Menimcha, bunga oynay jahon orqali sevgi-muhabbat haqidagi filmlarning ko'plab namoyish etilayotgani sabab bo'layotgandir? Ulardan karra jadvalni so'rasangiz, aytib berolmasliklari mumkin. Lekin «Esmeralda», «Muhabbat qahvasi» yoki «Qalbim chechagi» kabi film qahramonlarining nomlarini so'rasangiz, bexato aytib berishadi. Bu bilan sevgi-muhabbat haqidagi filmlar namoyish etilmasin, demoqchimasman. Bunday filmlar kechki seanslarda namoyish etilsa, kunduzi bolalarbop filmlar ko'proq ko'rsatilsa, degandim.

Feruza OBIDOVA.

SENI OY DEDIM...

Men seni oy dedim, yo'q, oy emassan,
Oyning yuzlarida katta dog'i bor.
Seni quyosh dedim, yo'q, quyoshmassan,
Axir buning uchun unga qalb darkor.
Seni shalola deb o'yladim, ammo,
U faqat kulgunga teng kelar xolos.
Seni parilarga qiyos ayladim,
Biroq u ham sening madhing uchun oz.
Sen o'zing falakda tanho yulduzsan,
Shoir qalb yurakda qoldirilgan iz.
Aslida dunyoda kimnidir sevib,
Jimgina xayolga cho'mib turgan qiz.

Oybek HAYITOV,
Qashqadaryo viloyati,
Chiroqchi tumani.

KIM QO'YIBDI?

Sinfimiz o'quvchilari juda ahil edilar. Ayniqsa, Umida va Dilafruzlar oralaridan qilib o'tmaydigan dugona edilar. Edilar, deyishimning sababi bor. Sinfimizga B. ismli bir bola keldi-yu ahilligimiz buzildi. Bolalar orasida shivir-shivir, g'iybat gaplar ko'payib bordi. Sababi, Umida B.ni, u esa Dilafruzni yaxshi ko'rib qolibdi. Qarabsizki, ikki chin dugonalar dushmanga aylanishdi-qolishdi. O'qishlari ham pasayib ketdi. Ularga qarata, sizlarga sevgini kim qo'yibdi, degim keladi.

Xurshida YOQUBOVA,
Shayxontohur tumanidagi
42 - maktabning 8 - sinf
o'quvchisi.


DO'STLIK O'ZI NIMA?

Og'ir damlaringda yordam qo'lini cho'zmaydigan, faqatgina sendan foydalanib, evaziga boshga ish tushganda yuzini burib turadigan insonni biz «do'st» atamasak-da, ular uchun biz do'stmiz.

G. ismli sinfdosh do'stinga o'zlashtira olmagan darslarida doim yordam qo'lini cho'zib, uy vazifalarini tayyorlashda ko'maklashardim. Yo'q! U iltimos qilsa «yo'q» deya olmasligimdan emas, unga nisbatan qalbimda iliq bir tuyg'u - do'stlik atalmish qudratli tushunchaning borligi uchun uning aytganini qilishga odatlangandim. Ammo bir kuni darsda men chorasiz holga tushib qoldim, nima qilsam ekan, degan savol boshimni qotirardi. Agar shu topshiriqni qila olmasam sha'nimga dog' tushiradigan «2» bahoni olishim aniq edi. Shunda G.ga murojaat qildim. U esa o'zining ishlari borligini bahona qildi: U o'zgarib qolgan, men bilan gaplashishni ham istamasdi. Ana shunda uning kimligi, asl qiyofasi namoyon bo'ldi.

Shunday og'ir vaziyatda yordam qo'lini cho'zgan bir sinfdoshimni endi-endi chuqurroq anglab yetayapman. Oddiygina, ammo men uchun qiyin tuyulgan o'sha savolga javobni men kutgan odamdan emas, aksincha, umuman xayolimga kelmagan sinfdoshimdan olaman, deb o'ylamagandim. Nachora, do'stlikning qadrini bilmaydigan o'rtoqlarimiz ham oramizda bor ekan.

Rustam O'TAMUROD,
Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis
san'at litseyi o'quvchisi.



Bu voqea shu yilning yoz oylarida bo'lib o'tdi. Agar birov aytib berganda hecham ishonmagan bo'lardim. Lekin...

Bir kuni biz bolalar bilan katta anhora cho'milgani bordik. Suvga bir-ikki marta sho'ng'ib chiqqach, qumda mazza qilib yotib dam oldim. Shunda ko'zim ilinib, tush ham ko'ribman. Tushimga buvim rahmatlik kirib, menga ehtiyot bo'lishimni qayta-qayta takrorlayotganmishlar. Cho'chib uyg'onib ketdim. Qarasam, bolalar suvda, birlari bilan hazillashib suvga bo'ktirishayapti. Meni ham havasim kelib, ularning orasiga sho'ng'idim. Shunda

MENI KIM QUTQARDI?

do'stim Bahrom meni suvga cho'ktira boshladi. Men ham avvaliga unga «kuchimni» ko'rsata boshladim. Shu payt kimdir oyog'imdan tortgandek bo'ldi. Shuncha kuch sarflasam ham, sira suvning ustiga chiqa olmasdim. Birpasda ko'zimning oldidan bolalar ham yo'qoldi. Suvning tagida sekin oqa boshladim. Buni faqat boshidan o'tkazgan odam biladi. Hammasi tamom bo'ldi, deb o'yladim, chunki kuchim qolmagan, buning ustiga nafas ham ololmasdim. Shu payt suvning tagida qandaydir yog'du paydo bo'ldi. Ko'zim qamashib ketdi. Keyin bir kuch meni suvning ustiga irg'itib yubordi. Oyoq-qo'llarim xuddi birovnikidek suzib borardi. Qirg'oqqa yaqinlasha boshladim. Yuqoriga chiqqach, shalop etib o'zimni qirg'oqqa tashladimu boshqa hech narsani eslolmayman. Ko'zimni ochsam, boshimni oyim silab o'tirgan ekanlar. Dadamga hadeb «Rahmatlik oyijonim aytgandilar-a, bolangga ehtiyot bo'lg'in deb», der edilar. Shunda men ham buvimni tushimda ko'rganimni aytib berdim. Meni sizlarga aytmoqchi bo'lganim, chindan ham yaqinlarimizning ruhlari bizni asrab-avaylashar ekan. Men bunga yana bir marta amin bo'ldim.

Botir YUNUSOV,

Toshkent viloyati, Parkent tumani, Nomdanak qishlog'i.

Kunlardan bir kun...

Bu voqea buvam navqiron yigit bo'lgan paytlarida sodir bo'lgan ekan. Bir kuni yarim kechada buvamni kimdir «Ahmadjon» deb chaqirgandek bo'libdi. Chiqib qarasalar, Teshavoy aka degan qo'shnilar zarurat yuzasidan chiqqan ekan. U bilan gaplashib bo'lgach, eshikni qulflab, kirib yotibdilar. Shu payt yana kimdir chaqiribdi. Qo'shnimning yana biror gapi

CHAQIRGAN KIM?

yodidan chiqib qolgandir-da, degan xayol bilan «kim» deb ham so'ramay, eshikni ochibdilar. Qarasalar, qop-qora tukli bir odam ko'zlarini lo'q qilib, sening o'liming yaqin, dermish. Buvam qo'rqib ketibdilar. Teshavoy akani chaqirib kelsalar, haligi odam yo'q emish. Bu hol bir necha bor takrorlanibdi. Shunda buvamga qo'y so'yib, xudoyi qilib yuborishni maslahat berishibdi. Shundan keyingina qora junli odam boshqa bezovta qilmabdi.

Nurbek UNGAROV,

*Toshkent viloyati,
Zangiota tumanidagi
12 - o'rta maktabning
7 - «A» sinf o'quvchisi.*

Umid - umr bo'yi bizga yo'ldosh bo'ladi, hattoki o'lim to'shagida ham u bizni tark etmaydi.

A.Pop.

Kelajak eng oydin va eng go'zal dunyo. Kelajakni seving, unga intiling, kelajak uchun ishlang va uni yaqinlashtiring.

N.G.Chernishevskiy.

Umid - inson hech qachon to'ymaydigan boylik.

L.Vavenarg.

Yomon odam o'zining yomonligini bilmaydi. Agar bilganida u yaxshi odam bo'lishga harakat qilgan bo'lardi.

Fabriddin ali Safiy.

Bizning baxtimizning o'ndan to'qqizi salomatligimizga bog'liq.

Artur Shopengaver.

Bu voqea yozgi ta'til kunlarining birida sodir bo'lgan edi. Bir kuni men do'stlarim

bilan soyga cho'milgani borgan edik. Mening yonimda Yo'lbars laqabli itim ham bor edi. Biz soyda mazza qilib cho'milar, yo'lbars esa biz qiyqirganimiz sayin vovullab qo'yar edi. Shu payt soy chetida ikkita katta-katta itlar paydo bo'ldi. Yo'lbars quloqlarini dikkaytirgancha ularga vovullay boshladi. Haligi itlar jon-jahdlari bilan biz tomon otilib kela boshladilar. Biz qo'rqqanimizdan suvga tushib oldik. Ular kela solib, Yo'lbarsga tashlanishdi. Kutilmagan zarbadan

SOY BO'YIDAGI OLISHUV

Yo'lbars dumalab tushdi. Ular irillashib olisha ketishdi. Chang-to'zon ichida Yo'lbars, dam begona itlar ko'rinar. Shunda begona itlardan biri angillagancha nari ketdi. Uning panjasidan qon oqardi. Yo'lbars o'zidan sal kattaroq va baquvvatroq it bilan olishardi. Biz nima qilishimizni bilmay, garang edik. Chang-to'zon ichidan haligi begona it chiqqida, yugurib, Yo'lbarsdan qocha boshladi. Yo'lbars ham uni ancha joygacha quvlab bordi. Itim yonimga qaytib kelganida uning bo'ynidan qon oqardi. Men Yo'lbarsni uyga olib borib, jarohatini bog'lab qo'ydim. Do'stlarim bu voqeani har gal eslashganida, men shunday zo'r itim borligidan g'ururlanib qo'yardim.

Davron VOHIDOV,

Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumanidagi 7-maktab o'quvchisi.


Tabiat - har xil chuqur ma'noga ega yagona kitobdir.

L.Gyote.

Eng katta xato - hech qachon xato qilmayman deb o'ylash.

T.Karmil.

*Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli tumanidagi 57 - maktabning 9-sinf o'quvchisi
Nazira QAYIPBERGANOVA to'pladi.*



Savollar: 1. Mustaqil so'z turkumi. 2. Fin-ugor oilasi turkumi. 3. Zidlov bog'lovchisi. 4. Narsa-buyumlarning belgisini bildiruvchi turkum. 5. Bog'lovchi. 6. 500 tilda so'zlashuvchi davlat. 7. Hokim gap tarkibida keluvchi gaplar.

Tuzuvchi: Zokir BOLLIYEV,
*Respublika Nafis san'at litseyining
9- «A» sinf o'quvchisi.*

Tuzuvchi: Ravshan MALIKOV, Poytaxtimizdagi 46 - maktabning 9- «V» sinf o'quvchisi.

**BOLALIGIM**

Umrning quvonchli kunlari senda,
Hayotning sevinchli onlari senda.
Bahorning serjilo damlari senda,
Bolaligim tark etma meni.


Faqat senda bo'lar bu dunyo tekis,
Hayoting bo'lmagay hech qachon izsiz.
O'tmagay bir oni sho'xliklarimsiz,
Bolaligim, tark etma meni.

Munajat JAHONGIROVA,
Andijon shahridagi 24 - maktabning
9- «D» sinf o'quvchisi.

USTOZ OQ YO'L TILAYDI

Ohangaron tumani 1 - Bolalar va o'smirlar ijod uyi «Yosh qalamkash» to'garagi a'zosi Norinboyeva Gavhar o'zining ajoyib she'rlari bilan to'garakda alohida o'rin tutadi. «Ohangaron» tuman gazetasida «O'zbekistonim», «Qalbing oyga yo'g'rilsin» nomli she'rlari chiqib o'quvchimiz Gavharg qanot berdi. Natijada a'lo o'qishi bilan birga she'riyatga ham intilib yashamoqda. Ijodiga ijod qo'shilsin. Seni kelajakda nafaqat Ohangaron, balki butun Respublika shoira Gavhar deb tanishlarini istab qolaman. Oq yo'l, qizalog'im!

Xayriniso JO'RAYEVA,
Ohangaron tumanidagi 1-Bolalar va o'smirlar ijod uyi
direktori.

**VATAN**

O, shahar bunchalar go'zalsan,
Kechalaring oy nurida ravshan.
Kunduzlari senda qaynagay hayot,
Seni ko'rsam ko'zim yashnagay, Vatan.
O'g'lonlaring Alpomishday pahlavon,
Qizlaring Barchinday misoli lo'bar.
Kelajaging buyuk, ey, O'zbekiston,
Mehrining dilimizda mangu'lik qadar!

O'ZBEKISTON QIZIMAN

Vatanni sevaman jonimdan ortiq,
Vatanni sevishim oydingay yorug'.
Bu go'zal vatanim men uchun borliq,
O'zbek farzandiman, o'zbek qiziman.

Xalqimga yordamim tegadi bir kun,
Bog'lari jannatim, yorug'dir har tun.
Farzandingman, chin dildan quvongum,
O'zbek farzandiman, o'zbek qiziman.

Gavhar NORINBOYEVA.

TOPISHMOQLAR

«Men ustimga temirdan kiyganman to'n»,
Deydi shoxdor tumshug'i bor ...



Dengiz suvi cho'milmoqqa juda zo'r!
Lek ichmoqqa yaramaydi, chunki ...

(Sho'r)

Tushgunicha o'lkangga sovuq,
Har kuni tuxum berar chipor ...



Tunlaring zerikarli o'tar, biroq,
Xonangda yonmas ekan nurli ...


(Chiroq)

«Asalari uyasiga men loyiq!»,
Deydi dangasa, shirinlikka o'ch ...

Balolardan asragay bo'lib xumor,
Bo'yningga buvijoning taqqan ...

(Tumor)


«Atashadi meni suvda yurar ot»,
Deydi og'zin esnab ochib ...



«Qancha kitob mutolaa qilsang oz!»,
Mehr bilan senga boqib der ...

(Ustoz)

«Hovli-joyini qo'riqlayman juda soz!»,
Qanotlarin yozib deydi mag'rur ...



Boqasan angoriga to'xtab taqqa,
Qurillasa ko'ldan bosh suqib ...

(Baga)

Jahongir MIRZAALIYEV.

Bir kemacha bor ekan. U har kuni daryoda suzar, odamlarni va martagina okeanga borib kitlar va delfinlarni ko'raylik, -deb iltimos

KEMACHA HAQIDA ERTAK

turli buyumlarni tashir ekan. U tepasidan uchib o'tayotgan qushlar va tagidan suzib o'tayotgan baliqlar bilan suhbatlashar, sira zerikmas ekan. Bir kuni kemachaning tepasidan uchib o'tayotgan qaldirg'och unga okean haqida so'zlab beribdi. Qirg'og'i ko'rinmaydigan suvlar va unda yashovchi

ulkan baliqlar haqida
eshitib,
kemacha
hayratga
tushibdi.
Judayam
okeanni ko'rgisi
kelibdi.

-Iltimos, bir



qilibdi kemacha o'zini boshqaradigan kapitanidan.

-Yo'q, sening ishing daryoda suzish, -debdi kapitan.

Kemacha rosa yalinsa ham kapitan so'zidan qaytmabdi.

Kemacha juda xafa bo'libdi. Bir kuni kechqurun kapitan uyiga ketganida kemachaning xayoliga bir fikr kelibdi.

— Baribir okeanga boraman! -debdi kemacha o'ziga-o'zi.

Shunday qilib, kemacha g'izillagancha yo'lga tushibdi...

Unga qushlar va baliqlar yo'l ko'rsatishibdi. Oxiri u okeanga yetib kelibdi.

Ertalab kemachasi yo'qolib qolganini ko'rgan kapitan boshqa kemani boshqara boshlabdi. Dunyoda kemalar juda ko'p-da, axir! Kemacha esa delfinlar va kitlar bilan o'rtoq bo'lib, haliyam okeanda suzib yurganmish.

Xurshid TOJIBOYEV, 7 yosh.



«Tong yulduzi» jamoasi gazeta musahhihi Nargiza ABDULLAYEVAga volidai muhtaramasi Ra'noxon ayaning vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

«Tong yulduzi» jamoasi «Gulxan» jurnali xodimi Vasila PO'LATOVAga opasi Aqidaxon va akasi Ilg'or Po'latovlarning vafot etganligi munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

O'TGANLARNING RUHI SHOD, OXIRATI OBOD BO'LSIN!

Ona yurti - oltin beshigi

TONG Yulduzi

O'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA
AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOIIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida ofset usulida
bosildi.

Korxona manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.
Buyurtma № T- 55
Gazetani
Ma'suda IRISNAZAROVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Ozoda TURSUNBOEVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi
№ 000137
Manzilibiz: 700129,
Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75